



---

## SUN'IY INTELLEKT: YUTUQ VA KAMCHILIKLARI

---

*Jabborov Sattorbek Suxrobovich,*

*Muzaffarov Abdulaziz Azam o'g'li*

*Toshkent shahar Chilonzor tumani 173-sonli umumiy*

*o'rta ta'lim maktabi 8- "V" sinf o'quvchilari*

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, Alan Turing, CAPTCHA, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ong, kompyuter, robot, kelajak

**Key words:** artificial intelligence, computer, robot, thinking, consciousness, awareness, personality, society, humanity, problems, prospects, future.

Sun'iy ong, ya'ni sun'iy intellekt yoki sun'iy idrok (ingliz tilida Artificial intelligence) qisqartirilganda AI sifatida ham talafuz qilinadi. Insonlar yoki hayvonlar tomonidan ko'rsatiladigan tabiiy ongdan farqli o'laroq, texnologiyalar tomonidan ko'rsatiladigan insonning aqliy qobiliyati: hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati ya'ni ongdur. Yetakchi sun'iy ong darslik kitoblari bu sohani „ongli agentlar“ni o'rganish deya takrorladi: o'z muhitini fahmlaydigan va maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish imkoniyatini maksimal darajada oshiradigan amallarni amalga oshiruvchi har qanday sistemadir.


Biz bilamizki sun'iy intellekt tushunchasini fanga ilk bora Alan Turing olib kirgan. U 1912-yilning 23-iyunida Angliyaning Maida Vale tumanida dunyoga kelgan. 1950-yilda u Turing testini kashf qilgan. Turing ikkinchi jahon urushida nemislarning "Enigma" shifrovchi mashinasini buzgan. 1950-yil oktyabr oyida „Mind“ jurnalida nashr qilingan „Hisoblash mashinasi va suniy intellekt“ nomli ilmiy maqolasida bir tajriba qilishni taklif qilgan. Unga ko'ra, kompyuterlar odamlar bilan aloqa qilganda odamlardek „fikrlay oladi“ va „muloqot qila oladi“, ya'ni kompyuterni o'rgatish mumkin. Mazkur tajriba keyinchalik „Turing testi“ deb nomlanib, kompyuterlarning onglilik darajasini tekshirgan. „Turing testi“ni aksi bajarilishi natijasida CAPTCHA (hozirgi davrda dunyoga mashhur, odamlarni haqiqatdan ham odamligini tasdiqlovchi test)ni kashf qilgan.

Turing birinchilardan bo'lib xotirasida dasturlarni saqlaydigan kompyuter yaratish mumkinligini isbotlovchi ilmiy ishini taqdim etgan.



Hozirgi kompyuterlarning ilk ajdodlarini yaratilishida qatnashmagan bo'lsa-da, tushunchasini yaratib bergan. Turing hatto shaxmatning kompyuterdagi turini ham o'ylab topgan. Shuningdek, u matematika, biologiya va kimyo fanlariga qiziqib, bu sohalarida ham o'z qirrasini ko'rsatgan


Turing o'limidan 50 yil o'tib, olimning 100 yoshi munosabati bilan u oqlana boshlandi. 2009-yilda Buyuk Britaniya bosh vaziri Gordon Brown Turing uchun o'z xalqidan uzr so'radi. U 2013-yilda Angliya qirolichasi Yelizavetta II tomonidan oqlandi. 2002-yilda Turing – “tarixdagi eng mashhur 100 ta britaniyaliklardan biri” deb, 2009-yilda „Buyuk Britaniyadagi eng mashhur gomofobiya qurbonlaridan biri“ sifatida tan olingan.



Turing mukofoti-Hisoblash mashinalari Uyushmasi (Association for Computing Machinery)ning yillik mukofotlaridan biri Turing sovrini deb nomlanadi. Axborot texnologiyalari sohasidagi eng obro'li mukofot. Ushbu mukofot informatika bo'yicha Nobel mukofotiga tenglashtiriladi.

Alan Turing haykali – Buyuk Britaniyaning Manchester shahrining Uitvord bog'idagi yodgorlik. Ushbu yodgorlik bronza materialidan yasalgan bo'lib, hozirgi vaqtda uning narxi 16000 funt sterlingnidir. Haykalni qurish uchun bu mablag'ni 12 oy davomida lotereya va xayriyalardan to'plashgan.

Bu olimni ko'pchilik hozirgi texnologiyalarning boshi bo'lgan sun'iy intellektni yaratganligi uchun taniydi.



Haykalning oyoq uchiga o'rnatilgan

lavhada ushbu so'zlar qayt etilgan: „Alan Medeson Turing. Informatika fanining otasi, matematik, mantiqchi, harbiy shifrovchi, xurofot qurboni





1928-yilda yosh Turing maktab-internatda o'qiydi. U yerda o'zini baxtsiz his qilardi. Shuningdek, maktab-internatdagi boshqa o'quvchilar uni masxara qilishardi. Kunlarning birida Turing Kristofer Morcom bilan do'stlashadi. Kristofer Turingda kriptografiyaga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Vaqt o'tib Turing uni yoqtirib qoladi. Biroq, Christopher ko'p o'tmay sil kasalligidan vafot etadi.

1939-yilda Buyuk Britaniya Germaniyaga urush e'lon qilganda, Turing Bletchley Parkga boradi. Komandor Alastair Denniston boshchiligida u Hugh Alexander, John Cairncross, Piter Hilton, Keyt Furman va Charles Richardsdan iborat kriptografiya jamoasiga qo'shiladi. Jamoa natsistlar kodlangan xabarlarini jo'natish uchun ishlatadigan Enigma mashinasini analiz qilishga harakat qiladi.

Ho'sh, sizningcha sun'iy intellekt bo'lgani yaxshimi?

Sun'iy intellekt odam qilishi mumkin bo'lgan ko'p vazifalarni bajara olyapti va bu odamlarni ish o'rinlarini yo'qotishga ham sabab bo'lmoqda. Misol uchun haydovchilar, yuk mashinalari inson omilisiz ham boshqarilishi, kassalarda ishchi bo'lmasligi, operatsiyalarni ham inson emas, robotlar ham uddalay olishi mumkin. Natijada esa, albatta, kimdir ishsiz qolish imkoniyati bor.

Jahon iqtisodiy forumini kelajak ish o'rinlari haqidagi hisobotiga ko'ra, keyingi besh yillarda hozirgi mavjud ish o'rinlarini 23 foizi o'zgarishga uchraydi: 70 mln ish o'ri yaratilishi, 80 mln ish o'ri esa yo'qolib ketishi kutilyapti. Bu global miqyosda ish o'rinlarining 14 millioni, ya'ni 2 foizi yo'qolib ketishi mumkinligini kutilmoqda. Qisqaradigan ish o'rinlari, kasblarning yo'qolib ketishiga sun'iy intellekt, aqlli texnologiyalar xodimlar bajaradigan ishlarni qila boshlagach, inson mehnatiga hojat qolmasligi sabab bo'lmoqda.

### **Yo'qolib ketish xavfidagi kasblar**

ChatGPT va shunga o'xshash sun'iy intellekt dasturlari sabab quyidagi kasblar to'liq yoki qisman yo'qolib ketish xavfida:

- dasturchilar, dasturiy ta'minot muhandislari, ma'lumotlar tahlilchilar va grafik dizaynerlar
- ommaviy axborot vositalaridagi ish o'rinlari (bosh direktor, muharrirlar, jurnalistlar);
- yuridik sohadagi ish o'rinlari (parayurist, yurist yordamchisi);
- marketologlar;
- ustozlar;
- moliyaviy ish o'rinlari (moliyaviy tahlilchilar, shaxsiy moliyaviy maslahatchilar);



- treyderlar,
- buxgalterlar,
- qo‘llab-quvvatlash xizmati xodimlari.

Mening fikrimcha, Sun‘iy intellekt rivojlangani yaxshi, lekin odamlar ishsiz qolish muammosi bor. Bu usulni aholisi kam davlatlarga ishlashi kerak deb o‘ylayman. Chunki ko‘p aholisi bor davlatlarga sun‘iy intellekt ishlarni ta‘minlab bersa odamlar ishsiz qolishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Появится ли когда-нибудь искусственный интеллект с сознанием?  
<https://hinews.ru/computers/poyavitsya-li-kogda-nibud-iskusstvennyj-intellekt-s-soznaniem.html>
2. Экс-глава Alphabet предложил в ближайшее десятилетие не беспокоиться о восстании машин <https://republic.ru/posts/89842>
3. Бум нейросетей: Кто делает нейронные сети, зачем они нужны и сколько денег могут приносить <https://www.skoltech.ru/media/bum-nejrosetej-kto-delaet-nejronnye-seti-zachemoni-nuzhny-i-skolko-deneg-mogut-prinosit/>
4. [https://enc.for.uz/wiki/Alan\\_Tyuring](https://enc.for.uz/wiki/Alan_Tyuring)
5. Аблеев С.Р., Моделирование сознания и искусственный интеллект: пределы возможностей // Вестник экономической безопасности. 2015.